

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

**CHAYONLAR (SCORPIONES) NING UMUMIY TUZILISHI VA
TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI.**

Termiz davlat pedagogika institute Biologiya fani o‘qituvchisi

Aslanova Xolida Gafurovna

Biologiya ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

To‘xtamurodova Feruza Shavkat qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘g‘imoyoqlilar tipi vakili chayonlarning tashqi tuzilishi ularning tibbiyotdagi ahamiyati haqida zamonaviy adabiyotlar tahlili keltirilgan. Ababiyotlarda qayd qilinishicha “Chayon suti” deb ataladigan chayon zahri onkologiya kasalliklarini tadqiq qilish va davolashda qo’llanilib kelmoqda. Xulosa o‘rnida chayonlar zahrini tibbiyotdagi ahamiyatini yanada oshirish hususida bir qancha ilmiy izlanashlar olib borish dolzarb muammo ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Xelitsera, paypaslagich, Spermatoforlar “Chayon suti”, onkologiya, VES-4,

ОБЩЕЕ СТРОЕНИЕ И МЕДИЦИНСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СКОРПИОНОВ.

Аннотация: В данной статье представлен анализ современной литературы о внешнем строении членистоногих представителей скорпионов и их значении в медицине. Согласно записям, яд скорпиона под названием «Молоко скорпиона» использовался при исследовании и лечении онкологических заболеваний. В заключение было отмечено, что актуальным является проведение ряда научных исследований с целью дальнейшего повышения значения яда скорпиона в медицине.

Ключевые слова: Хелицеры, пальпатор, Сперматофоры «Скорпионье молоко», онкология, ВЕС-4,

**GENERAL STRUCTURE AND MEDICAL SIGNIFICANCE OF
SCORPIONES.**

Annotation: This article presents an analysis of modern literature about the external structure of arthropods representative of scorpions and their importance in medicine. According to the literature, scorpion venom called "Scorpion milk" has been used in the research and treatment of oncological diseases. In conclusion, it

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май

was noted that it is an urgent problem to carry out a number of scientific researches in order to further increase the importance of scorpion venom in medicine.

Key words:Chelicera, palpator, Spermatophores "Scorpion milk", oncology, VES-4,

Chayonlar (Scorpiones) — o'rgimchaksimonlar tarkumi, ba'zan mustaqil sinf sifatida qaraladi. Uzunligi 1—20 sm. Boshko'kragi yaxlit qalqon bilan qoplangan. Bu qalqon o'rtasida 2 juft, uning 2 yonida bir necha juft ko'zları bor. Kutikulası mum qavati bilan qoplangan. Qorin qismi kengaygan. Ingichka keyingi bo'limi boshko'krak tomoniga egiluvchan. Bir juft zahar bezi keyingi qorinning oxirgi bo'g'imida joylashgan bo'lib, sanchuvchi nashtarga ochiladi. Xelitseralari mayda, qisqichsimon. Oyoq paypaslagichlari uchki qismi yirik qisqichga aylangan. O'pka orqali nafas oladi. Spermatoforlar yordamida urug'lanadi. Chayonlar tirik tug'adi. 750 ga yakin turi, jumladan, O'zbekistonda bir necha turi bor. Surxondaryo viloyati hududida Chipor (sariq) chayon ko'p uchraydi. Yirtqich tunda ov qiladi. Chaqqanida qattiq og'riydi. Ammo, chayon chaqishi o'limga olib kelmaydi.

Bir necha turi Markaziy Osiyoda uchraydi. Ko'pchilik turlari mayda. Bizning mintaqamizda *chipor chayon Buthus eupeus* keng tarqalgan. Uning uzunligi 6,5 sm ga yetadi.

Hozirgi kunda chayonlarning tibbiyotdagi ahamiyati ortib bormoqda.. Chayon zahri inson uchun halokatga olib keladigan darajada havflidir. Biroq molekulyar darajada bu yuzlab foydali komponentlar bo'lib, onkologiya kasalliklarini hamda rak kasalliklarini davolashda samarali foydalanilmoqda. Moddani qo'l usulida olish esa inson uchun ham, jonivor uchun ham zararlidir. Marokashning Kasablanca universiteti olimlari chayon zahrini tez va havfsiz sog'ib oluvchi agregat - VES-4 deb nomlangan mitti robotni yasashni uddaladi. U o'rgimchaksimonlarning dumiga o'rnatiladi va elektr toki yordamida zaharning ajralishini tezlashtiradi, uni yig'adi va saqlaydi. Robotni yaratishdan oldin olimlar guruhi zarar keltirmaydigan kuchlanish hajmini aniqlash uchun chayonlarning mavjud bo'lgan barcha turlarini o'rganib chiqdi. Bitta qurilma bir vaqtning o'zida to'rtta jonivorni sog'ishi mumkin, dedi tadqiqotchi Muad Mkamel'. Muad Mkamel' - olim: - Agar oldin biz bir kunda faqat 10 ta chayonni sog'a olgan bo'lsak, endi ularning soni 150 taga etadi! Olinadigan zaharning sifati va miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, tadqiqotlarimiz va

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

natijalarimiz shunchalik yahshi bo‘ladi. Uning hamkasbi Rashid Seil shifobahsh zaharni ular faqat Marokashdagi chayonlardan olishiga umid bildirdi. Rashid Seil - olim: - Biz zahardan kerakli molekulalarni ajrata olamiz. Umid qilamanki, vaqt kelib bu molekulalar Marokash jonivorlaridan tarkib topadi. Bu ishimiz va tadqiqotlarimizni yanayam bebaho qiladi. Hozir jamoa robotni patentlashlarini kutmoqda. Keyin esa olimlar o‘z mashinasini ommaviy ishlab chiqarilishni rejalashtirmoqda. Ularning bahosiga ko‘ra, chayon sutining bir grammi 8-12 ming dollarni tashkil etadi. Surxondaryo hududida ham chayonlardan zaharni sog‘ib olish usullarini o‘rganib chiqish tibbiyotda yangi burilish kasb etgan bo‘lar edi. Chayonlar issiq muhitga yashashga moslashgan bo‘ladi. Shuning uchun ham Surxondaryo viloyati hududida ularni ko‘paytirish bir muncha qulay hisoblanadi. Chayonlardan olingan zahar rak hujayralarini ham nobud qilqr ekan.



Zahar olinishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

- 1.O. Mavlonov , Sh. Xurramov, X.Eshonova. Umurtqasizlar zoologiyasi. darslik . T.: O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti ,
2.S.Dadayev, Q.Saparov Umrtqasizlar zoologiyasidan Laboratoriya mashg‘uloti.Toshkent 2018
3.S.Dadayev,O.Mavlonov Zoologiya Toshkent 2008
4.Hayitov A. E., Asanova X. G. USE OF STUDENTS'LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 166-169
5.Musa buva o‘gli S. A. et al. STUDY OF THE INTRODUCTION AND BIOECOLOGY OF BANANA (MUSA) IN KHAZORASP DISTRICT OF KHORAZM REGION //Confrencea. – 2023. – T. 5. – №. 05. – C. 114-1152006.462-b.
6.Internet tarmoqlari <https://uzreport.news/world/chayon-suti-kasalliklarni-davolashda-yordam-beradi>